

## XOTIN-QIZLARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH DAVR TALABI

Mirjavharova Feruzaxon Usmonjonovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi. 3-darajali yurist.

[Mirzavharovaferuzaxon@gmail.com](mailto:Mirzavharovaferuzaxon@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10956844>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jamiyat ustuni bo'lgan yosh avloqni tarbiyalovchi xotin-qizlarimizning huquqiy savodxonligini oshirish ularning o'z huquqlarini har yerda talab qila olishlarini ta'minlash, jamiyatimizda ayollar huquq va erkinliklarini har tomonlama ta'minlash masalalari haqida fikir yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqiy savodxonlik, ayollar huquqlari, ayol va erkak tengligi, jamiyatda ayollarning o'rni.

## IMPROVING THE LEGAL LITERACY OF WOMEN IS THE NEED OF THE TIME

**Abstract.** This article discusses the issues of improving the legal literacy of our women, who educate young morals, who are the pillars of society, ensuring that they can demand their rights everywhere, and comprehensively ensuring the rights and freedoms of women in our society.

**Key words:** legal literacy, women's rights, women's and men's equality, women's role in society.

## ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ ЖЕНЩИН – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы повышения правовой грамотности наших женщин, воспитывающих молодёжь нравственности, являющихся опорой общества, обеспечивающих возможность повсеместно требовать своих прав, комплексного обеспечения прав и свобод женщин в нашем обществе.

**Ключевые слова:** правовая грамотность, права женщин, равенство женщин и мужчин, роль женщины в обществе.

## KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni ilg'or fikrlaydigan, yetuk va barkamol shaxs etib tarbiyalash, yurtimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirishda xotin-qizlarning o'rni har qachongidan muhim. Shu bois, mamlakatimizda islohotlar jarayonida xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Konstitutsiyamizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi belgilangan. O'z navbatida, mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qildi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga binoan, teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy tamoyillari qonuniylik, demokratiya, ayollar va erkaklar teng huquqliligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, salohiyatini ro'yobga chiqarish, jamiyatning teng huquqli, faol va tashabbuskor a'zosiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida shu yo'nalishda muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Bundan tashqari mamlakatimizning turli viloyatlarida ham xotin-qizlar huquqiy savoxonligini oshirishga qaratilgan tadbirlar, o'quv seminarlari va treninglar o'tkazilmoqda.

Bunday tadbirlar xotin-qizlarning huquqiy bilimlarini yanada oshirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ayollarning o'z iqtidorlarini namoyon qilish qobiliyatiga yarasha ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ana shu imkoniyatlardan foydalanish darajasi esa unga bog'liq.

Agar ayol o'zini nafaqat ayol, balki inson sifatida jamiyatdagi o'rnini anglasa, unga tabiat ato etgan qobiliyatni to'g'ri yo'naltira olsa, faqat oila qurishni emas, balki halol mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi lozimligini hayotining maqsadi deb bilsa, bu ayol albatta o'z hayotidan qanoatlana oladi.

Mustaqil O'zbekistonda xotin-qizlarga demokratik davlatlar uchun xos bo'lgan barcha huquq va erkinliklar taqdim etilgan. O'tgan yillar mobaynida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgan Respublikamiz BMTning —Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo'q qilish haqidagi konvensiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining —Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi, Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risidagi konvensiyalariga MDH davlatlari orasidan birinchilar qatorida qo'shildi. Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish, ularning oila va umuman jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 66- maqsadida xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalarini oshirishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish belgilangan.

Shu bilan birga Inson huquqlarini demaklashtirish muamollari ilmiy zehn, xalqning tarixan tarkib topgan ana`analari, urf-odatlari, ma`naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda aholining huquqlarini kafolatlari ta'minlash bo'yisha tegishli organlarga vazifalar taqsimlab berildi.

Xotin- qizlarni huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularni davlat organlarida faoliyat olib borish erkinliklarini yaratish, ayollarning oiladagi o'rnini kuchaytirish, jamiyatimizdagi gender diskriminatsiyaga chek qo'yish va shu kabi boshqa muamoga sabab bo'layotgan masalalar bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Bu jihatlar xalqaro miqyosda ham keng e'tirof etilmoqda. Shu jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni xalqaro doiralarda ham targ'ib qilib, butun dunyo jamoatchiligi diqqat e'tiborini ayni masalaga qaratib keladi.

Muhokamalarimiz davomida shuni ma'mnuniyat bilan ko'rsatib o'tish lozimki, ayollarimiz huquqlari, ularning huquqiy madaniyatini oshirish borasidagi qilinayotgan keng ko'lamli islohotlar nafaqat davlatimizda balkim butun dunyo miqyosida e'tiborga olinib, himoya qilinib kelinadi.

Bunga yaqqol misol tariqasida, Pekinda bo‘lib o‘tgan 1995-yildagi To‘rtinchi Jahon Konferensiyasida muhokama etilgan masalalardan biri – ayollarning bilim olishini ta‘minlash va kasbiy mahoratni oshirish masalasi hisoblandi. Bu holatni amalga oshirish ayollarning o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini oshirish bilan birga jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etishini ta‘minlashga imkoniyat yaratadi. Har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lish ayollar uchun nashr etilgan turli ma‘lumotlarni o‘zlashtirishga, zaruriy amaliy malaka hosil qilishga, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

O‘z navbatida ayollarning bunday imkoniyatlarga ega bo‘lishi ularning hayotini yaxshilaydi. Shuning uchun ham investitsiyalarni ayollarning ma‘lumot olishi va bilimining mukammallashtirishga sarflash maqsadga muvofiqdir, deb topildi. Ayollarning bilim olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan va, eng muhimi, tenglik, taraqqiyot, tinchlik kabi maqsadlarga erishish vositalaridan biridir. Lekin bu huquq har bir kishining shaxsiy huquqi deb hisoblanishi xato bo‘lur edi. Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi sur‘atlari shu qadar ildamki, muttasil bilim olish muammosini yuzaga keltirmoqda.

Kamsitilishlarga yo‘l qo‘ymay bilim berish nafaqat qizlarga, balki o‘g‘il bolalarga ham foyda keltiradi va shu bilan pirovardida erkaklar va ayollar orasida teng huquqli munosabatlarni o‘rnatishga ko‘maklashadi. Bilim olishda tenglik va uni olish imkoni ko‘p sonli ayollar hukumat islohotlarining faol ishtirokchilariga aylanishlari uchun zarurdir.<sup>1</sup>

Zamonaviy ayolga shunchaki savodli bo‘lish: o‘qish, yozish, hisobni bilishi yetarli emas, uning oldida ta‘limning sifati, muammosi paydo bo‘lib, doim mustaqil ta‘lim ustida ishlab, tinimsiz o‘z bilimlarini orttirib, chuqurlashtirib borishni talab etadi. Xotin-qizlar orasida savodxonlik ular oilasida farzandlarning sog‘lig‘ini saqlash, ovqatlanish va ta‘lim olishini ta‘minlashda qo‘l keladi. Zotan yurt kelajagi yosh avloqdning qo‘lida. Shunday ekan onalar yuqori darajada bilimga ega bo‘lishlari kerak.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida mamlakatimizda xotin-qizlarga oid davlat siyosatini qo‘llabquvvatlash hamda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunmohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish hamda targ‘ib etish zarur. Demak, siyosiy faol, yetuk ma‘naviyatli, jamiyatning muhim tayanchi bo‘lgan xotin-qizlar rolini yanada kuchaytirish uchun quyidagilar taklif etiladi: birinchidan, ayollarimizning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida siyosiy partiyalar dasturlarini keng jamoatchilikka yetkazishi lozim.

Ikkinchidan, OAVlarda siyosiy, huquqiy bilimni oshiruvchi ko‘rsatuvlarni xalqchil tilda yetkazish zarur.

Uchinchidan, - xotin-qizlarning oilada huquqiy savodxonligini oshirishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Toki oilaviy zo‘ravonlik qurboniga aylanib qolmasligi uchun, qizlarimizning haq-huquqi bilan birga ma‘naviy yuksak bo‘lishi davr talabidir.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.O‘zbekiston. 2019. -40

<sup>1</sup> Xolmatova M., Muraveva N.M. Yoshlar oilaviy hayot bo‘lag‘asida. T.: o‘zbekiston, 2000. – 64 b

2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun [lex.uz/docs/4494849](https://lex.uz/docs/4494849). (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son)
3. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar. <https://lex.uz/docs/4494849>. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi PQ-4235-son qarori. “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/4230944>